

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINING METODIK-MATEMATIK TAYYORGARLIGI VAZIFALARI

Yusupova Sevara Davletiyar qizi

Boshlang'ich ta'lim fakulteti

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Davlat ta'lim standartlarining aniq o'quv fani bo'yicha emas, balki ta'lim sohalari bo'yicha ishlab chiqilish o'quv fanlarini variativ tanlash asosida o'quv-metodik majmualar (dastur, o'quv rejasi, darsliklar)ni yaratish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi, shuningdek, o'quv fanlararo bog'lanish va bilimlarini muvofiqlashtirish tamoyili asosida o'quv fanlarining ichki bog'liqligi va fanlararo aloqasini ta'minlashga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflar o'qituvchisining metodik-matematik tayyorgarligi deyilganda biz uni ilmiy dunyoqarash asosida matematika o'qitish metodikasini umumiy pedagogik-psixologik va matematik tayyorgarlik bilan uzviy bog'lanishda tayyorlanishni tushunamiz.

Kalit so'zlar: matematika, so'zlar, o'quvchi, boshlang'ich sinf, metodik-matematik

Mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, Xalq ta'limi tizimida bo'layotgan o'zgarishlar «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko'rsatib o'tilgandek har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldiga muhim vazifa qo'yilmoqda. Bu vazifalar boshlang'ich ta'lim uchun xos bo'g'inlarni ajratish imkonini beradiki, bu bo'g'inlar xilma-xil o'quv fanlari dasturlarida, o'quv rejalarida, darsliklarda ta'limning joriy etilishi hamda metodik tizimida biror tarmoqni hosil qilishi mumkin. Davlat ta'lim standartlarining aniq o'quv fani bo'yicha emas, balki ta'lim sohalari bo'yicha ishlab chiqilish o'quv fanlarini variativ tanlash asosida o'quv-metodik majmualar (dastur, o'quv rejasi, darsliklar)ni yaratish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi, shuningdek, o'quv fanlararo bog'lanish va bilimlarini muvofiqlashtirish tamoyili asosida o'quv fanlarining ichki bog'liqligi va fanlararo aloqasini ta'minlashga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflar o'qituvchisining metodik-matematik tayyorgarligi deyilganda biz uni ilmiy dunyoqarash asosida matematika o'qitish metodikasini umumiy pedagogik-psixologik va matematik tayyorgarlik bilan uzviy bog'lanishda tayyorlanishni tushunamiz. Bunday tayyorlanish vazifasiga matematikadan boshlang'ich ta'lim sohasida ma'lum bilim va uquvlarni egallash va bolalarni o'qitish orqali tarbiyalashni o'zlashtirishi kiradi. Metodik-matematik tayyorgarlik boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlashning tarkibiy qismi bo'lib, uning ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatidan ajralgan holda qaralishi mumkin emas. Ikkinchi tomondan, boshlang'ich sinflarda matematikani o'qitish birinchi bosqichdir, ya'ni bolalarni navbatdagi matematika kursini o'zlashtirishga tayyorlash bosqichidir. Matematikadan boshlang'ich ta'limning bu ikki jihati (aspekti) (boshlang'ich ta'limning tarkibiy qismi va matematik tayyorgarligi) metodikada o'zining munosib aksini topishi

lozim. Boshlang'ich matematika kursi, bir tomondan, bilimlar boshqa sohalarida foydalaniladi va bolalar tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan boshlang'ich bilimlar yagona majmuini yaratadi, ikkinchi tomondan zaruriy metodologik tasavvurlarni va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. 6–10 yoshli bolalarining fikrlash qobiliyatlarini shakllanishida mas'ul davr ekanligini psixologlar isbot qilishgan. Mana shu bolalikda shakllantirilmagan narsalarni keyinchalik to'ldirish juda qiyin. Shu sababli boshlang'ich ta'lim metodikasining, xususan, matematikadan boshlang'ich ta'lim metodikasining markaziy vazifalaridan biri o'qitishning yetarlicha yuqori rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishni ta'minlashda o'qitishni bolalarning aqliy rivojlanishlariga ta'sirlarini jadallashtirishdan iborat. Matematikadan boshlang'ich ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini nazariy bilimlar tizimi asosidagina hal etishi mumkin. Bu ilmiy dunyoqarash, psixologiya, didaktika, matematikani o'qitish nazariyasini (matematika didaktikasi) o'z ichiga oladi. Biroq birgina nazariy bilimlarning o'zi yetarli emas. O'qitishning ma'lum mazmuni va o'qituvchilarning aqliy faoliyati saviyasi bilan ta'sirlanadigan u yoki bu o'quv yo'nalishi uchun eng yaroqli usullarini va qo'llay bilish darsga tayyorlanishda yoki darsning o'zida yuzaga keladigan aniq metodik vazifalarni hal etishni bilishi zarur. Ayni shu boshlang'ich sinflarda bolalarning aqliy rivojlanishlariga asos solinishi sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun o'quvchilarning aqliy faoliyatlari darajasini va imkoniyatlarini bilish va hisobga olish ayniqsa muhimdir. Kelgusidagi amaliy faoliyat uchun xususiy, amaliy, laboratoriya ishlarida matematikani o'qitish metodikasi bajariladigan ishlar orqali egallanadi. Nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanishda va mashg'ulotlarning o'zida o'qitish amaliyotida foydalanish jarayonida yuzaga keladigan turli-tuman metodik masalalar hal etilishi lozim. Metodik masalalar har bir darsda yuzaga keladi, shu bilan birga, odatda ular bir qiymatli yechimga ega emas. O'qituvchi darsda yuzaga kelgan metodik masalaning mazkur o'quv vaziyat uchun eng yaroqli yechimining tez topa olishi uchun bu sohada yetarlicha keng tayyorgarlikka ega bo'lish talab etiladi. Keltirilgan masalalar darsda iloji boricha turli usullar bilan hal etilishi lozim. Boshlang'ich ta'lim metodikasi o'qitish vositasi sifatida mavjud didaktik o'yinlar mantiq ilmi va matematika nuqtayi nazaridan mazmunan yetarli emasligi tufayli didaktik o'yinlardan foydalaniladi va o'rganilgan materialni faqat mustahkamlash vositasi sifatida foydalaniladi. Bolalarni 6–7 yoshdan o'qitishning mazmuni va usullarida muammolar yuzaga keladi. Bu bog'cha -maktablarda o'qitish orqali hal etiladi. Sanoqni o'rganish, qo'shish va ko'paytirishni birinchi bosqichda o'rgatish (20 ichida) boshlang'ich ta'limning markaziy vazifasi bo'lib kelgan va shundoq bo'lib qoladi. Biroq, bu vazifa yagona bo'lib qolmasdan, balki u bolalarni matematikani o'rganishga yanada kengroq va har tomonlama tayyorlash ishining tarkibiy qismi bo'lib qoladi. Ushbu ikkita asosiy yo'l bilan belgilanadi: 1) pedagogik yo'l, ya'ni bolalar fikrlashini qo'llaniladigan matematik mulohazalarga tayyorlash; 2) matematika yo'li, ya'ni bolalarni eng muhim matematik tushunchalarni va eng avvalo natural son va geometrik shakl tushunchalarini o'rganishga tayyorlash. O'quvchilarni matematika o'rganishga tayyorlashda matematikani "jiddiy" o'rganish uchun ular bilan "matematik o'yin" o'tkazish lozimdir. Chunki shu jamiyatda yashaydigan inson keng faoiyatga tayyorlanar ekan, uning rivojlanishi, tafakkurini yangilashda o'quv jarayoniga ilg'or texnologiyalarni kiritish, o'quvchilarning erkin, mustaqil fikrlash, ijodkorlik faoliyatini

rivojlantirishni taqazo etadi. Bugungu kunda o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish lozimligi kun tartibidagi muammo bo'lib qolmoqda. 1-4 sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish, ta'limni samarali tashkil etishda darslarni noan'anaviy tarzda o'tkazish, darslarda innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantiruvchi o'yinlar bilan tanishib chiqamiz: To'rtinchisi ortiqcha. Bu mantiqiy o'yin. Bolaga 4ta narsaning rasmini bering. 3tasi bitta umumiy tushunchaga daxldor bo'lsin. U "ortiqcha" sini topsa, rag'batlantiriladi. Rasmlar to'plami turlicha bo'lishi mumkin: stol, stul, krovat va choynak; ot, mushuk, it va qisqichbaqa; archa, qayin, chinor va qulupnay; bodring, sholg'om, sabzi va quyon. Agar bola hamma topshiriqlarni to'g'ri bajara olsa, ajablanmang. Uning fikrlari va asoslarini tinglashga harakat qiling. Chunki bolaga quyon bilan sabzining bir-biriga bog'liqligi bodring va sholg'om kabi sabzavotlar qatoridan sabzini ajratib olishga asos bo'lishi mumkin. Unga sabzavot va jonivorlar degan tushunchaga asoslanib to'g'ri javobni topishda va quyon "ortiqcha" ekanini bilishda yordam bering. Bunda bolaga umumlantiruvchi jumlar aytish orqali o'zi javob topishiga imkon yaratib bering. Olamda nimalar bo'lmaydi? Bolaga olamda yo'q narsalarni rasmini chizishni topshiring. Rasmdagi narsa nega olamda yo'qligini so'zlab berishini so'rang. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Biz tilni jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas rivojlantirib, bo'yitib kelgan ajdodlarning vorislarimiz. O'quvchilarni tilning mavjud imkoniyatlaridan nutq jarayonida maqsadga muvofiq foydalana olishga o'rgatish maktab ona tili ta'limi oldida turgan mas'uliyatli vazifalardan sanaladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da "nutq" "tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi; so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasidir" 46, - deb ko'rsatiladi. "Pedagogicheskiy entsiklopedicheskiy slovar" da nutqqa "insonlarning til vositasida amalga oshiriladigan muloqot (kommunikatsiya) shakli bo'lib, u fikrni ifodalash vositasi bo'lishi bilan birga fikrlashning asosiy mexanizmi hamdir" 47 deb qayd etiladi. Boshlang'ich sinflarning ona tili ta'limida o'quvchilarning nutqini o'stirish – ularda eshitish, anglash, gapirish, yozish va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, demakdir. Shu asosda intellektual salohiyat oshiriladi, estetik va axloqiy tarbiya yo'lga qo'yiladi. Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilar nutqi va tafakkurini rivojlantirish masalasi o'tgan asrning 60-70-yillarida S.Dolimov, Y.Abdullayev, Q.Abdullayeva va K.Qosimovlar, 80-90-yillarida B. Turdiyev, A. G'ulomov, M. Qodirov, SH. Yusupova, B.To'xliyev, M. SHamsiyeva, T. Ziyodovlar, 2000- yillarda A.Hamroyev, SH.U. Nurillayeva, O'. Ro'ziboyeva, G. M. Ahmedova, SH. Yuldasheva, U.Masharipova, H. Bakiyeva kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Mazkur metodistlarning ayrimlari adabiyot darslarida, ayrimlari ona tili va o'qish darslarida og'zaki va yozma nutqni o'stirish masalasiga doir qimmatli metodik tavsiyalar ishlab chiqqanlar. A.Sa'diy adabiyot o'qitishda qahramonlarga og'zaki va yozma tavsif berish, S.Dolimov yozma bayon va adabiy ijodiy ishlarni tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalarida o'quvchilar nutqiy boyligining ahamiyatini aytib o'tganlar. Q.Abdullayeva "1-sinfda nutq o'stirish" metodik qo'llanmasida o'quvchilarni tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish, savod o'rgatish davrida mantiqiy mashqlarni tashkil etish, didaktik materiallardan foydalanish usullarini yoritgan bo'lsa, K.Qosimova «1-sinf ona tili

darslarida lugʻat ustida ishlash» qoʻllanmasida lugʻaviy mashqlarni tashkil etish metodikasi xususida soʻz yuritadi. B. Turdieyevning “Yozma nutqni oʻstirish yuzasidan praktikum” nomli qoʻllanmasida yozma nutqning umumiy nazariy masalalari, yordamchi xarakterdagi yozma ishlar, kitob ustida mustaqil ishlash bilan bogʻliq yozma ishlar, ish qogʻozlarini toʻldirish, bayon va insho yozishga oʻrgatish masalalari yoritilgan. A. Gʻulomov, M. Qodirovning “Ona tili oʻqitish metodikasi” qoʻllanmasida nutq oʻstirishning nazariy va amaliy ahamiyati, nutq oʻstirishga doir mashqlarni tashkil etish boʻyicha metodik tavsiyalar berilgan. M. Asqarova rahbarligidagi bir guruh olimlar tomonidan yaratilgan “Kichik yoshdagi bolalar nutqini oʻstirish” nomli oʻquv qoʻllanmada asosan bogʻcha yoshidagi bolalar nutqini oʻstirish masalalari oʻrganilgan. B. Toʻxliyev, M. SHamsiyeva, T. Ziyodovalar yaratgan “Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi” qoʻllanmasida boʻlgʻusi mutaxassislarini maktab taʼlimiga tayyorlashda grammatik mavzularga bogʻliq holda oʻquvchilar nutqini oʻstirish, lugʻatini boʻyitish metodikasiga alohida diqqat qaratilgan. Islohotlar tufayli ona tili oʻqitish metodikasi tezkor taraqqiyot yoʻliga kirdi. Uzlüksiz taʼlim tizimida til va nutqni farqlab oʻrganish, ona tili darslarida nutqni bilim, koʻnikma va malakalar hamda ijodiy tafakkur integratsiyasini taʼminlovchi vosita deb qarash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Nutqiy bilim, koʻnikma va malakalarni uzviylik va uzluksizlikda ona tili sathlararo aloqadorlikda izchil rivojlantirishga eʼtibor qaratildi. Boshlangʻich sinflar ona tili taʼlimining bosh vazifasi turli usulda va mazmunda tashkil etiladigan mashqlar yordamida oʻquvchilarning nutqi va tafakkurini rivojlantirishga qaratiladi. Taʼlim jarayonida nutq oʻstirish oʻqituvchi va oʻquvchining nutqiy koʻnikma va malakalarni shakllantirish va oʻstirishga qaratilgan hamkorlikdagi amaliy faoliyatdir. Oʻquvchilar nutqini oʻstirish hamisha pedagogik rahbarlikni talab etadi. Nutq oʻstirish nima? Agar oʻquvchi va uning tildan bajargan ishlari koʻzda tutilsa, nutq oʻstirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lugʻati, sintaktik qurilishini, bogʻlanishli nutqni) faol amaliy oʻzlashtirish tushuniladi. Agar oʻqituvchi koʻzda tutilsa, nutq oʻstirish deganda, oʻquvchilarning tilning talaffuzi, lugʻati, sintaktik qurilishi va bogʻlanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qoʻllash tushuniladi. Oʻqituvchining vazifasiga faqat oʻqitayotgan faniga qiziqish uygʻotibgina qolmasdan, oʻquvchilarning kommunikativ va mustaqil fikrlash koʻnikmasini rivojlantirish ham kiradi. Oʻqituvchi oʻquvchilarni turli vaziyatlarda til birliklaridan foydalana olishga, oʻz nutqiga ongli munosabatda boʻlishga, har bir soʻzga javobgarlikni his qilishga oʻrgatishi kerak. Ona tili oʻquv predmeti sifatida nafaqat nazariy bilimlarni oʻzlashtirishga, balki inson uchun umri davomida zarur boʻladigan til birliklarini Hamma bir narsa haqida oilada boʻladigan suhbatlarni biron-bir narsa haqidagi umumiy sifatlar va tushunchalar atrofida tashkil etib, bolalar ham unga jalb etiladi: daraxt nimaga oʻxshaydi, nimadan farq qiladi? Daraxt boʻlib turib nega odamlar plastmassa, temir kabilarni kash etadi? U nimasi bilan noqulaylik kashf etadi? Yogʻochdan jihozlar, idishlar, oʻyinchoqlar yasagan odam qanday sifatlardan foydalanadi? Yogʻoch maydalari va qirindilari nima maqsadda ishlatiladi? Yogʻoch choʻkadimi? Yonadimi? Boʻyaladimi? Nam tortadimi? Qiziydimi? Suv oʻtkazadimi? Boʻlishi mumkin – boʻlmaydi. Bu oʻyin boy tasavvur va sogʻlom fikrni talab etadi. Siz aytayotgan narsalar boʻlishi mumkin yoki aksincha ekanligini bola mushoxada qilib koʻrishi kerak. Agar notoʻgʻri javob bersa, navbat yana sizda boʻladi. Bunda siz

bo‘ladigan, bo‘lmaydigan misollarni aniq keltiring, masalan: “Bo‘ri daraxtda o‘tiribdi”, “Idishda payola pishyapti”, “Mushuk tomda yuribdi”, “Qayiq osmonda suzib ketyapti”, “Qizcha rasm chizyapti”, va h.k. Agar sizning va bolalarning farazlari turlicha va kutilmagan tarzda berilsa, o‘yin quvnoqroq va qiziqarliroq bo‘ladi. Agar ba‘zan yanglishib ketsangiz, bu o‘yinning faqat qiziqarli bo‘lishini ta‘minlaydi. O‘z o‘rningni top. Agar sinfda u yoki bu mavzu bo‘yicha tortishuvlar vujudga kelsa bu metod yordamida muammoning yechimini topish mumkin. Undan ko‘pincha tarbiyaviy tadbirning kirish qismida foydalanishadi va o‘tilayotgan mavzuni o‘rganishga turli xil yondashuvlar mavjudligi A.Sa‘diy adabiyot o‘qitishda qahramonlarga og‘zaki va yozma tavsif berish, S.Dolimov yozma bayon va adabiy ijodiy ishlarni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalarida o‘quvchilar nutqiy boyligining ahamiyatini aytib o‘tganlar. Q.Abdullayeva “1-sinfda nutq o‘stirish” metodik qo‘llanmasida o‘quvchilarni tovush va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish, savod o‘rgatish davrida mantiqiy mashqlarni tashkil etish, didaktik materiallardan foydalanish usullarini yoritgan bo‘lsa, K.Qosimova «1-sinf ona tili darslarida lug‘at ustida ishlash» qo‘llanmasida lug‘aviy mashqlarni tashkil etish metodikasi xususida so‘z yuritadi. B. Turdieyvning “Yozma nutqni o‘stirish yuzasidan praktikum” nomli qo‘llanmasida yozma nutqning umumiy nazariy masalalari, yordamchi xarakterdagi yozma ishlar, kitob ustida mustaqil ishlash bilan bog‘liq yozma ishlar, ish qog‘ozlarini to‘ldirish, bayon va insho yozishga o‘rgatish masalalari yoritilgan.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Abdullaeva Q. va boshq. 1-sinfda o‘qish darslari. – T.: «O‘qituvchi», 2009.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi Maktabgacha muassasalar xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Respublika o‘quvmetodika Markazi // Bolajon tayanch dasturi.T.:2010. 213 b.
3. Barkamol avlod — O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq,
4. R. Ergashev. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsida yestetik madaniyatni shakllantirish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. - T., “O‘qituvchi”, 2017
5. Asfandiyorovich F. N. et al. BASICS OF PROGRAMMING FROM THE TEXTBOOK OF INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES CHAPTER PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE METHODOLOGY OF MULTIMEDIA //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 1. – C. 778-781.
6. Xasanovich, Prof L. M., et al. "Development of Computer Simulation Model Develops Creative Thinking of the Student." *JournalNX*, vol. 7, no. 03, 2021, pp. 167-171.
7. Asfandiyorovich F. N. Teaching the Subject of Repetitive Algorithms Based on Multimedia Electronic Manuals //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 16. – C. 42-45.
8. Fayziyev Nozim Asfandiyorovich. (2022). TARMOQLANUVCHI ALGORITMLAR MAVZUSINI DOIR KOMPYUTER IMITATION MODELI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(2), 273–278.